




## 2019 yil 1-avgust holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot




## 2019 yil 1-avgust holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida viloyatimizda 3949 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1922 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3412 ta (15,6 %)ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 25340 tani tashkil etgan.






## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019 yilning 1-avgust holatiga 25340 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,6 % savdo, 21,0 % sanoat, 7,1 % qurilish, 6,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,7 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 26,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan  
korxonalar va tashkilotlar**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

|  | Umumiy soni, birlik |                | 01.08.2019 yil                          |                    |
|--|---------------------|----------------|---|--------------------|
|  | 01.08.2018 yil      | 01.08.2019 yil | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % | Jamiga nisbatan, % |
| <b>Jami</b>  | <b>21928</b>        | <b>25340</b>   | <b>115,6</b>                            | <b>100,0</b>       |
| <i>shundan:</i>                                    |                     |                |   |                    |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi                 | 1612                | 1738           | 107,8                                   | 6,9                |
| Sanoat   | 4257                | 5330           | 125,2                                   | 21,0               |
| Qurilish   | 1637                | 1810           | 110,6                                   | 7,1                |
| Savdo  | 5328                | 6746           | 126,6                                   | 26,6               |
| Tashish va saqlash                                 | 782                 | 944            | 120,7                                   | 3,7                |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 882                 | 1106           | 125,4                                   | 4,4                |
| Axborot va aloqa                                   | 339                 | 357            | 105,3                                   | 1,4                |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 490                 | 538            | 109,8                                   | 2,1                |
| Boshqa turlari                                     | 6601                | 6771           | 102,6                                   | 26,8               |

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar sonining eng ko'pi Namangan shahri (9342 ta), Chust (2090 ta), Namangan (1752 ta) va Uychi (1580 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (1032 ta), Norin (1081 ta) hamda Yangiyo'rg'on (1262 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 24814 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3873 ta (18,5 %)ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,3 % savdo, 21,2 % sanoat, 7,1 % qurilish, 6,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,8 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Namangan shahri (9101 ta), Chust (2021 ta), Namangan (1723 ta), Uychi (1571 ta) va Kosonsoy (1515 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (1029 ta), Norin (1074 ta) hamda Yangiqo'rg'on (1229 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019 yil yanvar-iyul oylarida 3949 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 1,9 martaga ko'pdir.


## 2019 yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (1153 ta), Chust (329 ta), Pop (323 ta) va Uchqo'rg'on (288 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (190 ta), Yangiqo'rg'on (200 ta) hamda Chortoq (220 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.


**2019 yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1588 ta), sanoat (1056 ta), qurilish (314 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (235 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (31 ta), axborot va aloqa (44 ta) hamda tashish va saqlash (138 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.



**2019 yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Tijorat korxonalarini**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019 yil 1-avgust holatiga 20543 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 6486 ta, oilaviy korxonalar - 442 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 13076 ta, unitar korxonalar - 157 ta, aksiyadorlik jamiyatlari - 26 ta va boshqalar 356 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*

Mas`uliyati cheklangan jamiyati



Xususiy korxonona



Oilaviy korxonona




Unitar korxonona



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**


2019-yil 1-avgust holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 193 tani tashkil etdi. O`tgan yilning shu davriga nisbatan 82 taga yoki 73,9 %ga o`sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog`iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to`g`ri keladi.

2019-yil 1-avgust holatiga xorijiy kapital ishtirokida 193 ta korxonona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, bu korxonona va tashkilotlarning eng ko`pi Namangan shahri (68 ta), Kosonsoy (19 ta), To`raqo`rg`on, Uychi, Chust (16 tadan) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Nisbatan kamlari Mingbuloq(4 ta), Namangan va Uchqo`rg`on (5 tadan) tumanlariga to`g`ri keladi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda**




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda**




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 131 tasi qo'shma korxonalar, 62 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar  
va xorijiy korxonalar soni, birlikda**




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarning faollik darajasi, %**



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

|                          | <b>Korxonalar soni</b> | <b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b> |
|--------------------------|------------------------|----------------------------------|
| <b>Namangan viloyati</b> | <b>193</b>             | <b>100,0</b>                     |
| Namangan shahri          | 68                     | 35,3                             |
| Mingbuloq                | 4                      | 2,1                              |
| Kosonsoy                 | 19                     | 9,8                              |
| Namangan                 | 5                      | 2,6                              |
| Norin                    | 8                      | 4,1                              |
| Pop                      | 13                     | 6,7                              |
| To'raqo'rg'on            | 16                     | 8,3                              |
| Uychi                    | 16                     | 8,3                              |
| Uchqo'rg'on              | 5                      | 2,6                              |
| Chortoq                  | 15                     | 7,8                              |
| Chust                    | 16                     | 8,3                              |
| Yangiqo'rg'on            | 8                      | 4,1                              |

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy  
kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda**




## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019 yilning yanvar-iyul oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 61 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 46 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Namangan shahri (16 ta yoki jamidagi ulushi 26,2 %), Kosonsoy va Chust tumanlari (7 tadan yoki 11,5 %dan) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Namangan, Uchqo'rg'on (1 tadan yoki 1,6 %dan), Mingbuloq hamda Norin tumanlari (2 tadan yoki 3,3 %dan) hissalariga to'g'ri keladi.


### 2019 yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 8 ta, Turkiya Respublikasi - 4 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 10 ta, Qozog'iston Respublikasi - 2 ta va Koreya Respublikasi - 8 ta hamda boshqa davlatlar - 29 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-iyul oylarida Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (23 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (12 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (3 ta) tashkil etilgan. Axborot va aloqa hamda tashish va saqlashda xorijiy kapital ishtirokida korxonalar tashkil etilmagan.


**2019 yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan  
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019 yil 1-avgust holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 20433 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1-avgust holatiga qaraganda 22,9 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 7865 tasi (38,4 %) Namangan shahri, 1677 tasi (8,2 %) Chust, 1478 tasi (7,2 %) Namangan hamda 1293 tasi (6,3 %) Uychi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamiyati ulushi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)






Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 20433 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6496 tasi (31,8 %) - savdo, 5239 tasi (25,7 %) - sanoat, 1758 tasi (8,6 %) - qurilish, 1674 tasi (8,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1068 tasi (5,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 924 tasi (4,5 %) - tashish va saqlash, 436 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi, 329 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 2509 tasi (12,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2019 yil yanvar-iyul oylarida 3813 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,3 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (1104 ta), Chust (321 ta), Pop (312 ta) va Uchqo'rg'on (283 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Mingbuloq (184 ta) hamda Yangiyo'rg'on (195 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019 yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa, eng ko'pi savdoda (1588 ta), sanoatda (1054 ta), qurilishda (314 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (233 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (31 ta), axborot va aloqada (44 ta) hamda tashish va saqlashda (138 ta) tashkil etilgan.


### Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019 yilning 1-avgust holatiga 450 tani tashkil etib, ulardan 442 tasi yoki 98,2 %ni faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda, davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 49,4 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

#### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




#### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, ularning 48,0 % yoki 212 tasi sanoat, 16,5 % yoki 73 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,2 % yoki 67 tasi savdo, 9,3 % yoki 41 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,4 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % yoki 5 tasi axborot va aloqa, 0,4 % dan yoki 2 tadan qurilish sohasi va tashish va saqlash hamda 7,7 % yoki 34 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019 yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

|                          | <b>Korxonalar soni</b> | <b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b> |
|--------------------------|------------------------|----------------------------------|
| <b>Namangan viloyati</b> | <b>134</b>             | <b>100,0</b>                     |
| Namangan sh.             | 43                     | 32,1                             |
| Mingbuloq                | 1                      | 0,7                              |
| Kosonsoy                 | 8                      | 6,0                              |
| Namangan                 | 7                      | 5,2                              |
| Norin                    | 10                     | 7,5                              |
| Pop                      | 6                      | 4,5                              |
| To'raqo'rg'on            | 16                     | 11,9                             |
| Uychi                    | 4                      | 3,0                              |
| Uchqo'rg'on              | 16                     | 11,9                             |
| Chortoq                  | 1                      | 0,7                              |
| Chust                    | 8                      | 6,0                              |
| Yangiqo'rg'on            | 14                     | 10,5                             |

2019 yil yanvar-iyul oylarida 134 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,0 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Namangan shahri (43 ta), To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on (16 tadan), Yangiqo'rg'on (14 ta) va Norin tumanlari (10 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Mingbuloq, Chortoq (1 tadan), hamda Uychi (4 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019 yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, ularning 43,3 % yoki 58 tasi sanoat, 23,1 % yoki 31 tasi savdo, 19,4 % yoki 26 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 7,5 % yoki 10 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,5 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, 0,7 %dan yoki 1 tadan sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda tashish va saqlash, shuningdek, 3,8 % yoki 5 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Qurilish sohasi bo'yicha yangi oilaviy korxonalar tashkil etilmagan.

**Namangan viloyati  
statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish  
bo'limi  
Tel.:71-230-80-95(96)**